

**BUXORO YAHUDIYLARI TARIXINING XX – XXI ASR ILMIY
ADABIYOTLARIDA YORITILISHI**

Botirov Sarvar Bahrom o'g'li,

Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

sarvarbotirov1771@gmail.com

Annotatsiya: mazkur tezisda Buxoro yahudiylari tarixining XX – XXI asr ilmiy adabiyotlarida yoritilishi tahlil etilib, yakunda muallif tomonidan mavzu yuzasidan tegishli xulosa va takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: adabiyot, yahudiylar, tarix, siyosat.

**ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИИ БУХАРСКИХ ЕВРЕЕВ В НАУЧНОЙ
ЛИТЕРАТУРЕ XX–XXI ВЕКОВ**

Батыров Сарвар Бахром угли,

Преподаватель кафедры общественных наук Ташкентской медицинской академии

sarvarbotirov1771@gmail.com

Аннотация: в диссертации анализируется освещение истории бухарских евреев в научной литературе XX и XXI веков, и в заключение автор дает соответствующие выводы и предложения по теме.

Ключевые слова: литература, евреи, история, политика.

**COVERING THE HISTORY OF BUKHARAN JEWS IN
SCIENTIFIC LITERATURE OF THE XX-XXI CENTURIES**

Batyrov Sarvar Bakhrom ugli,

Lecturer of the Department of Social Sciences of the Tashkent Medical Academy

sarvarbotirov1771@gmail.com

Abstract: this thesis analyzes the coverage of the history of Bukhara Jews in the scientific literature of the 20th – 21st centuries, and finally, the author gives relevant conclusions and suggestions on the topic.

Keywords: literature, Jews, history, politics.

O'zbekistonda yashayotgan qadimgi etnoslardan biri buxoro yahudiylari hisoblanadi. Hozirgi sharoitda Buxoro yahudiylari tarixi O'zbekistondan ko'chib ketgan yahudiylar xotiralari orqali o'rganilmoqda, tahlil qilinmoqda, qayta ko'rib chiqilmoqda. Buning natijasida buxoro yahudiylari tarixida ijobiy jarayonlar hosil bo'lib, butunlay yangi fakt va g'oyalar bilan boyitildi. Biroq, hozirgacha Markaziy Osiyoda yahudiylarning paydo bo'lishi, ularning miqdori va ular qayerdan kelganligi haqida yagona fikr yo'q. Afsona va rivoyatlar yozilgan ko'plab kitoblarda bu savol ochiqlicha qolgan. Ma'lumki, ko'plab asrlar o'tgach O'zbekistonda yahudiy xalqining turli xil etnik guruhlari yashaydi. Vaqtlar o'tib hududda ularning turli xil tarkibi paydo bo'ldi.

O'zbekistondagi yahudiylarning etnik tarkibi nihoyatda xilma-xil bo'lib, har bir etnik guruh o'z rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. 20-yillarda asr etnografik kartalari nashr qilingan uzoq vaqtlik tanaffusdan so'ng, 2002-yilda "O'zbekistonning etnik atlası"¹ nashr qilinib, unda respublikada yashaydigan boshqa xalqlar qatori yahudiy etnik guruhi haqida ham qisqacha ma'lumotlar berilgan. L.I.Jukov tomonidan rejalashtirilgan bu ish, shubhasiz, diqqatga sazovordir.

Buxoro yahudiylari Markaziy Osiyodagi qadimgi va kichik xalqlardan biri hisoblanadi. Ular boshqa katta xalqlar – o'zbeklar, tojiklar, qisman qirg'iz va turkmanlar orasida yashab, ularning turmush tarzi, madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan va ular bilan birgalikda umumiy tarixiy taqdirni boshdan o'tkazdi.

Shu bilan birga, buxoro yahudiylarining muhim belgilaridan biri e'tiqodi sifatida islomni qabul qilmadi, keyingi navbatda, mahalliy mahsulotlar ishlab

¹ Назарьян Р.Г., Некрасова Е.Г. Евреи среднеазиатские. // Этнический атлас Узбекистана. – Ташкент, 2002. SJIF:5.219

chiqarishda katta ta'sir ko'rsatdi (atlas mato ishlab chiqarish, ipak tolasi bo'yash va unga ishlov berish va boshqalar), asosan, turli xil savdo va iqtisodiy sohalar, shuningdek, madaniyat (musiqa, qo'shiq aytish va Shashmaqom), ilm-fanga katta hissa qo'shgan. Bu so'zni keng tushunishdan madaniyat o'zini o'zi boyitishning murakkab jarayoni vujudga keldi.

Yahudiy etnik jamoalari orasida eng yiriklari O'rta Osiyo(Buxoro) yahudiylari va Yevropa (ashkenazi) yahudiylari bo'lib, ular butun tarixiy davrda o'lka taraqqiyotida katta rol o'ynagan.

O'zbekistondagi buxoro yahudiylari tarixi bo'yicha mutaxassis hisoblangan E.L.Amitin-Shapironing 30-yillardagi mehnatlari besamar ketmadi. Muallifning ilmiy salohiyati 1938-yil "Sovet etnografiyasi"² jurnalida oktabr inqilobidan keyingi davrda Turkistondagi buxoro yahudiylari haqida bir qancha ma'lumotlarni nashr qilish imkonini berdi.

Muallifning keltirishicha, O'rta Osiyoyahudiylari adabiyotlarda turli nomlar: buxoro yahudiylari, osiyo yahudiylari, "tuzem" yahudiylari va mahalliy yahudiylar kabi nomlar bilan ataladi. O'zbek yer qurilish qo'mitasining 1934-yil dekabrda mahalliy aholini tekshirish natijasida bergan ko'rsatmalaridan O'rta Osiyo yahudiylarining joylashgan hududlari va ularning miqdori haqida keyingi ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin: Samarqandda – 5750 kishi; Toshkentda – 3340 kishi; Buxoroda – 1850 kishi; Qo'qonda – 2000 kishi; Andijonda – 900 kishi; Marg'ilonda – 860 kishi; Farg'onada – 580 kishi; Namanganda – 470 kishi; Xatirchida – 980 kishi; Shahrisabzda – 970 kishi; Karmanada – 700 kishi; Termiz-

² Алмитин-Шапиро Э.Л. Национальные меньшинства евреи после Великой октябрьской социалической революции. – Советская этнография. – Москва-Ленинград, Институт этнографии Академии наук СССР, 1938.

Boysunda – 500 kishi; Kattaqo‘rg‘onda – 250 kishi; Payshanbada – 200 kishi; kolxozlarda – 3150 kishi; O‘zbekistonning qolgan qismlarida – 1500 kishi; Jami – 24 000 kishi mavjud edi.³

Yahudiy ishchilari ommaviy tarzda ipakchilik fabrikalari va boshqa yengil sanoat korxonalariga ommaviy jalb qilindi va, asosan, Samarqand, Buxoro va Marg‘ilon shaharlarida joylashgan. Fabrikada ishlaydiganlar 1248 ta, barcha yahudiy zavod-fabrikalarida ishlaydiganlar 600 ming kishini tashkil etgan.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, inqilobga qadar yahudiylar boshqa mahalliy millatlar bilan ilm-fan sohasida bir qancha aloqalar o‘rnatdi, biroq madaniy va ilm-fan darajasi juda past bo‘lgan. Inqilobgacha bo‘lgan rasmiy statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, butun Turkistonda (Buxorodan tashqari) diniy maktab – xomla tashkil etilgan: 1894-yil 22 ta maktabda 22 ta o‘qituvchi bo‘lib, 603 ta o‘quvchi (602 ta o‘g‘il, 1 ta qiz) o‘qigan; 1911-yilda maktab va o‘qituvchilar soni o‘zgarmay, o‘quvchilar soni 778 taga (684 ta o‘g‘il va 94 ta qiz) oshgan.⁴

Bizning vatandoshlarimiz tomonidan yahudiylar masalasini o‘rganish rejasida AQSHda katta ishlar olib borilib, kitob, jurnal, gazetalar nashr etildi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi 1999-yil aprelida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada qiziq materiallarni namoyish etdi.⁵

Konferensiyada mashhur olimlar: tarixchilar, madaniyatshunoslar, faylasuflar, tarixshunoslar, san‘atshunoslar, filologlar, huquqshunoslar ishtirok etdi. Ma‘ruzalar ro‘yxati keltirib o‘tilib, ilmiy ishlar yo‘nalishlari tavsiflandi:

³ O‘sha asar. – B. 53.

⁴ Бағрикент Ўзбекистон диаспоралари тарихи. //жамоавий монография. – Тошкент: “TURON-IQBOL”, – 2019. – Б. 26.

⁵ Евреи Средней Азии. Под редакцией Э.В.Ртвеладзе, Г.Н.Гикинита. – Изд.-во: Институт открытого общества Узбекистана и Институт истории АН РУ. – Ташкент, 2000.

Markaziy Osiyoda islomga qadar yahudiy-iudaistlar (E.V.Rtveladze); Eron va Markaziy Osiyoda yahudiylik qonunlari rivojida zardushtiylik omili (III – VII asrlar; A.V.Abdullayev); Markaziy Osiyoda yahudiylik tarixi (G.Y.Dresvyanskaya); Buxoro yahudiylari etnologiyasi (R.V.Almeyev); Oʻrta Osiyoyahudiylari haqida bir qancha tortishuvlar (G.Lansdella sayohat ocherklari asosida) (V.L.Genshtke, T.E.Vaganova); Buxoro (Markaziy Osiyo) yahudiylari tarixchi va etnografi Z.L.Amitin-Shapiro (V.A.Germanov, B.V.Lunin); Turkiston pochta kartochkalarida yahudiylar (B.A.Golender); Imperiya Sharqshunoslik Jamiyatining Buxoro boʻlimi tarixi (S.M.Gorshenina); Buxoro yahudiylari va Oʻrta Osiyomusiqa madaniyati (A.B.Jumayev); Turkiston general-gubernatorligi davrida Oʻrta Osiyo(Buxoro) yahudiylari tarixi (V.A.Ivanov); Oʻzbekiston arxivlarida buxoro yahudiylari tarixi tarixshunosligi (N.Nikitenko, R.N.Shigabdinov); Oʻrta Osiyova Falastin oʻrtasidagi aloqalar yoki sionizmning affektiv yoʻli, 1793 – 1917-yillar (K.Pujol); Oʻrta Osiyoyahudiylari: sharq jamiyati hayotida etnodiniy kamchilikning roli va vazifasi (umummetodologik masalalar) (B.Siddiqov); “Turkiston toʻplami”da Turkistondagi buxoro yahudiylarining fuqarolik statusi toʻgʻrisida (I.D.Fok); XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent viloyati yahudiylari (A.I.Shevyakov); Yahudiylar diasporasi bilan bogʻliq Oʻzbekiston arxitekturasi tarixidan ikki etyud (M.A.Yusupova).⁶

Akademik E.Rtveladzening maʼruzasiga koʻra, Markaziy Osiyodagi yahudiylar boshqa xalqlar bilan bir qatorda Buyuk Ipak yoʻli, ayniqsa, gʻarbiy qismining harakatlanishida muhim rol oʻynagan. Tarixiy, arxeologik, epigrafik

⁶ Бағрикентг Ўзбекистон диаспоралари тарихи. //жамоавий монография. – Тошкент: “TURON-IQBOL”, – 2019. – Б. 27-28.
SJIF:5.219

ma'lumotlarning yetarli darajada emasligi sababli yahudiylarning Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan vaqtini aniq belgilash qiyin. Shunga qaramasdan, Markaziy Osiyoni arablar egallagunga qadar bu yerda yahudiylar yashaydigan to'rtta asosiy markaz: Baqtriya, So'g'd, Marg'iyona va Xorazm mavjud bo'lgan.⁷

G.Y.Dresvyanskaya Markaziy Osiyodagi arxeologik yodgorliklar bilan aynan o'xshash sharhlar bergan. R.Almeyer savollarga to'g'ri javob berishga harakat qilib, nima uchun bizning yerdagilar buxoro yahudiylari deb atalishi, ularning tili, buxoro yahudiylari nomi, bu terminning paydo bo'lish vaqti va kelib chiqishi yoritib berilgan.

O'rta Osiyoning atoqli bilimdoni professor B.Lunin XX asrning 20 – 30-yillarida buxoro yahudiylari tarixi va oilaviy huquqi to'g'risida birinchi va asosiy tadqiqotlaridan birini amalga oshirgan V.Germanovning ishlarini yoritib berish taklifini beradi.

Tadqiqotchi B.Glonder mutlaqo o'rganilmagan, Turkiston o'lkasi madaniyati tarixi va xalqlari etnografiyasiga bag'ishlangan birinchi ish Turkiston pochta kartochkalarida yahudiylar mavzusida qadimdan Movarounnahr shaharlarida O'rta Osiyoyahudiy jamoalari yashaganligiga e'tiborni qaratadi. Unda 1843-yil nashr qilingan "Buxoro xonligi tavsifi"⁸ asarida N.Xanikovning yozganlariga ishora qiladi: "Yahudiylar garchi katta guruh bo'lmasa ham, xonlik tarkibiga aancha oldin ko'chib kelgan bo'lib, ularning katta qismi Buxoro shahrida yashagan, bundan tashqari, men ularni Kattaqo'rg'on, Samarqand, Qarshi shaharlarida ham ko'rdim, mazkur shaharlarning hamma joylarida ularning

⁷ O'sha bet.

⁸ Ханыков Н. Описании Бухарского ханства. – Санкт-Петербург, 1843.

SJIF:5.219

kvartallari uchun joy ajratildi, ular ko‘chib ketmagan ham, musulmonlar bilan aralashmagan ham. Yahudiylar o‘zlarining kvartallarini “juhud-mahalla” deb ataydilar. Ular ko‘p bo‘lmagan. Ular talmudistlar, fors tilida gapirgan, matolarni bo‘yash bilan shug‘ullangan, bozorlarda savdo qilgan. Qo‘qon hokimati ostida ular jabr-zulmdan qutildi. Mahalliy yahudiylar Erondan kelgan, chunki ular forsha, aniqrog‘i, tojikcha gapirgan, ularning kiyimlari o‘zbek va tojiklardan ajralib turgan, salla kiyib yurishi mumkin bo‘lmagan”.

L.Jumayevaning boshqa bir qancha mutaxassislar inkor qilgan qarashlarga ochiq-oydin munosabat bildirishi o‘ziga jalb qildi. O‘zbek va tojiklarning an’anaviy klassik musiqasi hisoblangan Shashmaqom buxoro yahudiylarining merosi bo‘lib, keyinchalik o‘zbeklar va tojiklar uni o‘zlashtirgan degan masalaga aloqador tarqoq fikrlar mavjud.

Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi tarkibiga majburan kiritilishi buxoro yahudiylarining ko‘p asrlik tarixiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Aynan V. Ivanov Turkiston general-gubernatorligi davrida yahudiylar tarixini chuqur o‘rgangan. “1867-yil Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi natijasida mahalliy yahudiylar uchun tarixiy vaziyat va yangi sharoit va imkoniyatlar paydo bo‘ldi”, – deb o‘tmishdoshining (M. Abramov) fikrini keltiradi.

M.Abramov fikriga ko‘ra, “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida buxoro yahudiylari tarixida noyob sintez yuz berdi: etnik an’analar o‘zgaridi va yangi yahudiy-tojik adabiyoti (yahudiy-fors adabiyoti o‘rniga) vujudga keldi”, mahalliy yahudiy jamoalari Iyerussalim va Yevropa ashkenazilari bilan aloqani kuchaytirdi. “Bu tarixiy davr, – M. Abramovning fikriga ko‘ra, – yahudiy-tojik tilida keng



ko‘lamda kitoblar tayyorlangan va nashr qilingan, musiqa madaniyati, she‘riyat, folklor gullab-yashnagan sababli uyg‘onish davri deb qarash mumkin”.⁹

Tadqiqotchi K. Pujolning O‘rta Osiyo yahudiylarining Falastin (Muqaddas Yer) bilan aloqalari (1793 – 1917-yillar), B. Siddiqovning Sharq jamiyati hayotida etnodiniy kamchilikning roli va vazifasi haqidagi nazariy asoslari nomli ishlari katta qiziqish uyg‘otdi.

Millatlararo aloqalar, xususan, O‘zbekistonda yahudiylar diasporasi tarixi bo‘yicha yirik mutaxassislardan biri mashhur tarixchi olim S.I. Gitlin hisoblanadi. U Isroilga ketgach, 1998-yilda nashr qilingan o‘zining “O‘zbekistonda milliy aloqalar: afsona va haqiqatlar”¹⁰ nomli yangi ilmiy asarini Isroildan ancha uzoqda – Rossiya, AQSH, Germaniya, O‘zbekistondagi olimlar va mutaxassislar yuqori baholadi.

Yana 1999-yil Moskvadagi Rossiya Fanlar Akademiyasining Osiyo va Afrika Institutining “Vostok” jurnalida nashr qilingan S.Gitlinning bu monografiyasi O‘zbekistondagi yahudiylarga bag‘ishlangan birinchi sovet davriga oid rus tilidagi keng hajmli va mazmunli tadqiqotdir.

Muallif monografiyasida aytib o‘tadiki, O‘zbekistondagi yahudiylar diasporasi ikki qismdan: O‘rta Osiyo (buxoro) yahudiylari va Yevropa (ashkenazi) yahudiylaridan iborat. Ularning jamiyati parallel tarzda rivojlangan bo‘lsa ham biri biri bilan oldindan raqobat qilishga urinib, bir-birini tanqid qilishni maqsad qilib, o‘zlari o‘rtasidagi o‘ziga xos kontakt hududlar uchun kurashgan. Monografiya sahifalarida Sovetlar davri O‘rta Osiyo (buxoro) yahudiylari hayotida Yevropa

⁹ Бағрикенг Ўзбекистон диаспоралари тарихи. //жамоавий монография. – Тошкент: “TURON-IQBOL”, – 2019. – Б. 30.

¹⁰ Гитлин С.И. Евреи в Узбекистане: иллюзии и реальность. – Тель-Авив, 1998. – С. 456.

(ashkenazi) yahudiylarining rolini muhokama qilish katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. S. Gitlin bu fikrga tayanib, informatsion ocherkda diasporalar o'rtasidagi aloqalar cheklangan bo'lsa ham, keng ko'lamda tadqiqotlar qilinib, buxoro yahudiylarining ikki ming yildan uzoq tarixini qaytarib berdi. Bu paytga kelib keyingi asosiy ta'kidlanadigan jihat, birinchi navbatda, dunyo tarixshunosligida Rossiya bosqini davrida Turkistondan boshlab, o'tgan asrning oxirida ularning bu hududdan ommaviy ko'chib ketguniga qadar Yevropa yahudiylari tarixini qayta tiklashga urinish boshlandi.¹¹

S. Gitlinning boshqa bir ikki tomlik "O'zbekistonda kam sonli millatlar: o'tmish va kelajak" asari¹² oldingi masalalarga chek qo'ydi. Bu asar oldingi barcha masalalarni o'z ichiga olgan bo'lib, muallif O'rta Osiyo hududida milliy masalaga hozirgi vaziyatdan kelib chiqib haqqoniy baho bergan. S. Gitlin aytib o'tadiki, O'zbekistonda musulmon Sharqida mo'tadil siyosat, milliy siyosatni amalga oshirishda sobitqadamlik, millarlararo nizolardan uzoqlashish kabi noyob hodisalari bilan ajralib turadi va hozirgi vaqtda millatlararo hamjihatlik va barqarorlik yo'lida rivojlana bormoqda.

2013-yil Toshkentda nashr qilingan "O'zbekiston – umumiy uyimiz (buxoro yahudiylari madaniyati va tarixi ocherklari)"¹³ kitobi majmua sifatida taqdim etilib, unda O'zbekistondagi yahudiy xalqi tarixi, uning jamiyat hayotining turli tomonlari rivojiga qo'shgan hissasi aytib o'tilgan. Faktlarda o'zbek va yahudiy xalqlari madaniyatilari o'zaro ta'sir ko'rsatganligi, yahudiylar shu yerlarda

¹¹ Бағрикент Ўзбекистон диаспоралари тарихи. //жамоавий монография. – Тошкент: "TURON-IQBOL", – 2019. – Б. 31.

¹² Гитлин С.И. Национальные меньшинства в Узбекистане: прошлое и настоящее. Книга 1. Евреи в Узбекистане. Том первый. – Тель-Авив, 2004. – С. 541; Книга 1, том 2. – С. 376.

¹³ Узбекистан – наш общий дом (очерки истории и культуры бухарских евреев). – Ташкент, 2013. – С. 140.

qanday yashash kerakligini o'rganib, o'rgatib yashaganligi gapiriladi, biroq ular o'zlarining madaniyati, milliy ajdodlari, urf-odat va an'analarini unutmagan. To'plamda Toshkent yahudiylar diniy jamiyati, Respublika yahudiylar milliy-madaniyat markazi faoliyatiga e'tibor qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Назарьян Р.Г., Некрасова Е.Г. Евреи среднеазиатские. // Этнический атлас Узбекистана. – Ташкент, 2002.
2. Алмитин-Шапиро Э.Л. Национальные меньшинства евреи после Великой октябрьской социалической революции. – Советская этнография. – Москва-Ленинград, Институт этнографии Академии наук СССР, 1938.
3. Бағрикентг Ўзбекистон диаспоралари тарихи. //жамоавий монография. – Тошкент: “TURON-IQBOL”, – 2019.
4. Евреи Средней Азии. Под редакцией Э.В.Ртвеладзе, Г.Н.Гикинита. – Изд.-во: Институт открытого общества Узбекистана и Институт истории АН РУ. – Ташкент, 2000.
5. Ханыков Н. Описании Бухарского ханства. – Сант-Петербург, 1843.
6. Гитлин С.И. Евреи в Узбекистане: иллюзии и реальность. – Тель-Авив, 1998.
7. Гитлин С.И. Национальные меньшинства в Узбекистане: прошлое и настоящее. Книга 1. Евреи в Узбекистане. Том первый. – Тель-Авив, 2004.
8. Узбекистан – наш общий дом (очерки истории и культуры бухарских евреев). – Ташкент, 2013.